

**Numonova Mashxura**

## **SUV KOMPONENTLI LEKSEMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

“Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi” deb nomlanadi. Suvning madaniy kod sifatidagi xususiyati barqaror birikmalarda ko‘proq namoyon bo‘ladi. X. Jabborov monografiyasida suv leksemasi ishtirokidagi 32ta frazeologik birikma, 28ta maqol va hikmatli so‘zlar izohlangan. Ilova sifatida suv ishtirok etgan 421ta maqol keltirilgan<sup>39</sup>. Frazemalarda madaniy kod obrazli tafakkur fonida namoyon bo‘ladi. Suv frazeologik birikmalar tarkibida so‘zlovchining fikrini ta’sirchan, obrazli tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Tadqiqotda suv komponentli og‘zining suvi kelmoq, suv sepgan, sirkasi suv ko‘tarmaydigan, suv qilib ichmoq, suv qilmoq, suvga oqizmoq, suvga tashlamoq, suvga tushgan nondek bo‘shashmoq, suvga tushsa quruq chiqmoq, suv yuqmas, suvdan quruq chiqmoq, sirtiga suv yuqtirmaslik, suvga urib ketmoq, tagiga suv ketmoq, tushini suvga aytmoq, o‘zini o‘tga (ham), suvga (ham) urmoq, suvda cho‘kmas, o‘tga yonmas, suv kelsa – simirmoq, tosh kelsa kemirmoq, suv yugurdi, suvi qochgan, suvni loyqalatmoq, qo‘lini sovuq suvga urmoq, g‘alvirni suvdan ko‘tarmoq, suvini siqib ichmoq, og‘ziga suvluq solib olmoq, frazemalari tahlilga tortildi. Suv komponentli frazemalarda quyidagi milliy-madaniy xususiyatlar aks etgan: 1. Biologik jarayon o‘z ifodasini topgan. Og‘zining suvi kelmoq frazemasini insonning tabiiy refleksi bilan bog‘liq holatini ifoda etadi. Bu ibora, asosan, och holdagi odamda taom yoki yegulik nomini eshitishi, ko‘rishi bilan yuz beradigan fiziologik holatni aks ettiradi.

2. Shaxsning jismoniy faoliyati, to‘siqlarni yengish qobiliyati namoyon bo‘ladi: Suv kelsa – simirmoq, tosh kelsa – kemirmoq har qanday qiyinchilikto‘siqlarni bardosh berib yengib o‘tmoq. Bu frazema ham shaxs faoliyatiga berilgan bahoni ifoda etadi. Ha, Valixon-chi, aylanay!.. Qo‘ylarim deb suv kelsa – simiradi, tosh kelsa – kemiradi. S. Abduqahhor. Yangi uy (SH.R). 3. Ruhiiy, psixologik jarayon o‘z aksini topgan. Suvini siqib ichmoq – ruhan azoblamoq, ezilishga, siqilishga sabab bo‘lmoq. Og‘ziga suvluq solib olmoq – jilovlab olmoq, bo‘ysundirmoq. Ma’lumki, otga solingan suvluq uni oson bo‘ysundirish imkonini beradi. Ot temir suvluqning ra’yiga qarab buriladi va harakatlanadi. Chavandoz suvluq orqali otni istalgan tomoniga yo‘naltiradi, boshqaradi. O‘zbek tili sohibi bu holatdan insonni izmiga solish, bo‘ysundirish, aytganini qildirish holatlarini ta’sirchan ifodalashda foydalanadi. Sholisi suv ko‘tarmaydi yoki guruchi suv ko‘tarmaydi – “jahldor”, “nozikta’b”. Suv termoq frazemasini ham suv ko‘tarmoq frazemasiga yaqin ma’noni ifodalaydi. Ularni sinonim sifatida baholash mumkin: Palov yegisi keptimi? Ming la’nat mehmoninggayam, o‘zinggayam! Ijirg‘anib oshxonaga kirdi. Oshning guruchi suv terishini kutdi (TKU, 87).

1. Suv leksemasi keng semantik ko‘lamga, katta hajmdagi konseptosferaga, assotsiativ uzvlarga ega bo‘lib, denotativ asosning borliq, tabiat va kishilik jamiyatidagi moddiy, ma’naviy, ruhiy qiymatiga ko‘ra baholanadi. Suv til birligi sifatida denotativning “rangsizlik”, “suyuqlik”, “shaffoflik”, “poklik”, “tiniqlik”, “tiriklik” belgilarini, nutq birligi sifatida leksik-grammatik munosabatlarni ifoda etadi. Suv barcha xalqlarning lisoniy manzarasida mavjud bo‘lgan umummadaniy voqelik hisoblanadi. Suv madaniyatlararo universalialarni namoyon qilishi bilan bir qatorda milliy-madaniy belgini saqlagan, kognitiv-semantik xususiyatlarga ega falsafiy, lingvistik konsept sifatida talqin qilingan. 2. Suv konsepti avtoritar va binar oppozitsiya asosida o‘rganilgan. Bunday yondashuv leksema mazmun-mohiyatini yanada kengroq yoritishga, umumiy va xususiy belgilarni aniqlashga xizmat qiladi. Dunyo tilshunosligida suv konsepti o‘t(olov) konsepti bilan oppozitsiyada tahlil qilingan. Suv konseptining oppozitsiya usulidagi tahlili til sohibi lisoniy ongidagi konseptosferani tashkil qiluvchi tushunchalar, tabiiy va ijtimoiy

voqelik ifodasini yoritishga xizmat qiladi. 3. Suv konsepti qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur, antroposentrik paradigma asosida tadqiq qilingan. Suv konseptini ifodalagan leksemalar o'zaro qardosh 21 hamda turli tizimdagi tillar asosida qiyosiy-tarixiy aspektida o'rganilgan. Bunday tadqiqotlarda suv konseptining til birliklarida ifodalanish xususiyatlari tillarning leksik-grammatik belgilariga aloqadorlikda tahlil etilgan. Sistem-struktur yo'nalishdagi tadqiqotlar suv leksemasi asosidagi semema va leksema tarkibidagi semalarni tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan. Antroposentrik yo'nalishdagi tadqiqotlarda suv konsepti til sohibi tasavvuri, olamni idrok etish darajasi bilan bog'liq ravishda talqin qilingan. 4. O'zbek tilida suv komponentli birliklar va suv leksemasining tadqiqida struktur-semantik yondashuv ustuvorlik qiladi. Suv birligining leksik-semantik guruhlari, semantik maydondagi o'rni aloqador mavzular doirasida tadqiq etilgan. Suv komponentli leksemalar va barqaror birikmalarning lingvokulturologik xususiyatlarini antroposentrik paradigma, lingvokulturologik aspektida o'rganish tilning madaniy belgilarni va qadriyatlarni to'plash funksiyasini yoritishda o'ziga xos o'rin tutadi. 5. Suv komponentli leksemalar sodda va murakkab shaklga ega. Sodda leksemalar tub asos hamda shakl yasovchi qo'shimchalar orqali shakllangan. So'z yasaliş tizimiga asosan suv komponentli yasama leksemalar suv semantikasiga aloqador yangi tushunchalarni ifodalaydi. Suv komponentli sodda yasama leksemalar asosga aloqadorlikda yangi sememalar va semalarning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Suv komponentli ayrim leksemalar sinxron aspektda tub so'z sanalib, ular tarkibida suv komponenti yaxlitlanib qolgan, ayrimlari fonetik o'zgarishga uchragan. Suv leksemasining semantik qurshovi grammatik shakllar orqali yuzaga kelgan so'z shakllari, yasovchi qo'shimchalar bilan shakllangan leksemalar ma'nolari, semalarini o'z ichiga oladi. Suv leksemasi bir konsept doirasidagi semantik to'rni hosil qiladi. Suv leksemasi asosidagi semantik to'r bir xil fonetik asos negizidagi semantik uzvlar vositasida birlashadi. Semantik to'r tarkibidagi har bir leksema alohida semantik uzvlar asosida kichik semantik to'rlarni hosil qiladi. Semantik to'rlar yadro maqomidagi suv va suv komponentli leksemalar asosida yuzaga keladi. Suv komponentli birliklarga semantik to'r asosida yondashish so'z etimologiyasini aniqlashda, bir fonetik strukturali semantik tizimdagi aloqadorlikni tahlil qilishda, leksemada aks etgan mazmuniy munosabat darajasini belgilashda muhim o'rin tutadi. 6. Suv leksemasi semantikasi o'zaro aloqador bir necha ma'nolarni qamrab oladi. Bir qator tushunchalar suv leksemasiga yondosh sememalarni ifodalab keladi. O'z navbatida suv tushunchasining hajm ko'lami, joylashish o'rnini ifodalaydigan leksemalar "suv" tushunchasini metonimiya asosida turli semantik ko'lamda aks ettiradi. Suv leksemasi bir qator yondosh leksemalar bilan birga qo'llanib, umumlashtiruvchi hamda kontrast semantikani namoyon etadi. 7. Suvning madaniy kod sifatidagi funksiyasi o'xshatishlarda namoyon bo'ladi. Suv komponentli o'xshatishlarda suv leksemasining semantik xususiyatlari, kimyoviy modda sifatidagi belgilari, xalqning suv bilan bog'liq jarayonlarni anglash, suvning tabiiy va ijtimoiy ahamiyatini dunyoqarash, madaniy munosabatlar, qadriyatlar asosida baholash qobiliyati namoyon bo'ladi. 22 O'xshatishlarda suv konseptiga so'zlovchining ijobiy munosabati, ayrim o'rinlarda salbiy bahosi namoyon bo'ladi. Suv komponentli o'xshatishlar "suyuqlik", "iste'mol uchun qulaylik", "tiriklik", "hayot" semalariga asoslangan. 8. Suv birligining bir qator leksemalar bilan assotsiatsiya hosil qilishi semantik aloqadorlikka asoslanadi. Suv leksemasi agregat holati, ko'rinishi, joylashish makoniga ko'ra bir qator leksema bilan assotsiatsiya hosil qiladi. Assotsiativ munosabatlarda suv tushunchasining qiymati, til sohibining tafakkur darajasi, idroki, ijtimoiy-madaniy munosabatlar, qadriyatlarga bergan bahosi aks etadi. Assotsiativ tushunchalarning qiymati antroposentrik tahlillarda o'z ifodasini topadi. 9. Suv komponentli qo'shma leksemalar, asosan, terminlar va kasb-hunar so'zlaridan iborat. Suv komponentli qo'shma leksemalar so'z birikmasi > qo'shma so'z modelida bo'lib, leksemalarning denotativ ma'nolari birlashuvi va yaxlitlashuvidan yuzaga kelgan. Suv komponentli qo'shma leksemalarning shakllanishi tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, ulardan ayrimlarining semantikasini izohlash etimologik tahlillarni talab qiladi. 10. Barqaror birikmalar so'zlarning mazmun va grammatik jihatdan bir ko'chma ma'noni ifodalash uchun yaxlitlashuvidan tashkil topadi. Barqaror birikmalar borliqni ifodalashning ijtimoiy-falsafiy, mantiqiy, mental belgilarni qamrab olgan lisoniy vositasidir. Barqaror birikmalarda suv

konseptining asosiy va muhim belgilari yaxlit holda reallashadi. Barqaror birikmalar semantikasi suv konseptining muhim belgilarini, o‘zbek tili sohibi konseptosferasiga xos tafakkur, idrok, munosabat va baholash belgilarini qamrab oladi. Suv komponentli frazemalar tushunchani, fikrni ta’sirchan va obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Frazemalarda suvning madaniy kod sifatidagi belgilari namoyon bo‘ladi. Suv komponentli frazemalarda shaxsning ruhiyati, harakatholati, ijtimoiy faoliyati ifodalangan. Suv komponentli frazemalar tarkibidagi xalq qadriyati, urf-odati, an’analariga oid tushunchalar suv leksemasining semantik qirralarini aks ettiradi. Frazemalar semantikasida suvning “oqish”, “tozalik”, “poklash”, “namlash”, “ketkazish” semalari aks etgan. 11. Suv leksemasi denotatining kishilik jamiyatidagi o‘rni, xalqning suvga bergan bahosi, munosabati, suvning xususiyatlari, belgilari maqollarda xalq tajribasi kuzatishlari asosida namoyon bo‘ladi. Suv komponentli maqollarda suvning to‘xtamasligi, ortga qaytmasligi, soflik, tiniqlik ramzi, hayot, tiriklik manbai sifatidagi belgilari, tez oqishi, o‘tkinchiligi, ta’minlash funksiyasi, to‘kinsochinlik, yengilmas kuchga egaligi aks etgan. O‘zbek madaniyatida suvni eshitish, xotirada saqlash, axborot uzatish belgilari bilan baholash kuzatiladi. Maqollarda o‘zbek tili sohibining lisoniy ongdagi suv belgilariga bo‘lgan ijobiy va salbiy munosabati o‘z ifodasini topgan. 12. Suv komponentli barqaror birikmalar semantikasi suv leksemasi semalari va konseptual ma’nolari asosida shakllangan. Frazemalar, maqollar semantikasida tilning tarixiy taraqqiyoti davomidagi leksik-semantik jarayonlar, kognitiv belgilar, madaniy semalar yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Suv komponentli barqaror birikmalar semantikasining shakllanishi va taraqqiyoti o‘zbek tili sohibining lisoniy idroki, tafakkuri, tarixiy-madaniy munosabatlari, ijtimoiy voqelikni qabul qilishi va baholashi bilan belgilanadi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mo‘minova M.G‘. Suv leksemasining dunyo tilshunosligida o‘rganilishi. // Ta’lim, fan va innovatsiya (ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal). – Toshkent, 2023. – № 2. ISSN 2181-8274 (13.00.00. №218/5)
2. Mo‘minova M.G‘. Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi. // O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika. 2024. Vol. 2 (1). – B. 57-67. ISSN 2181-922X. (30.10.2021. №308/6)
3. Mo‘minova M.G‘. Suv leksemasining lingvokulturologik xususiyatlari / Filologiya ta’limi masalalari: muammo va uning yechimlari” mavzusidagi Xalqaro-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Farg‘ona, 2022. – B. 102-105.
4. Mo‘minova M.G‘. O‘zbek tilidagi suv leksemasining leksik-semantik xususiyatlari / Tilshunoslikning dolzarb masalalari (Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari). – Toshkent, 2022. – B. 127-130.
5. Mo‘minova M.G‘. “Suv” va “suv” komponentli birliklarning o‘zbek adabiy tili va shevalaridagi ma’nolari. / “O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 191-194.
6. Mo‘minova M.G‘. Suv konseptining antroposentrik tadqiqi / “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 475-482.